

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Qorauzak tumani axborot- kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati rahbari
Qosimbetova Bibisanem Jumabayevna

Annotatsiya: ushbu maqolada axborot-kutubxona markazlari faoliyati hamda axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy informatsion texnologiyalarning ahamiyatining hozirgi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot olami, kutubxona, ma'lumot, kiber olami.

Abstract: this article provides information about the activity of information-library centers and the importance of modern information technologies in information-library institutions today.

Key words: information world, library, information, cyber world.

Bugungi kunda 'axborot olami' degan yangi dunyo paydo bo'ldi. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan olamshumul elektron axborot tarmoqlaridan borgan sari muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda va uning qudrati kundan-kunga ortib bormoqda. Har birimizning hayotimizda Axborot olamining ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. U olis manzillarni yaqinlashtirib, oraliqdagi masofalarni qisqartirmoqda. Axborot kiber olami deb ataluvchi bu soha rivoj topib borayotgani tufayli dunyoning turli millatlari bir-birlari bilan qadrdonlashmoqda. Chunki mazkur kiber olamda insoniyat tarixida erishilgan barcha bilimlar jamlangan. Tarix, siyosat, madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim va hokazo sohalarga doir ma'lumotlar dunyoning barcha kishilari uchun qiziqarlidir. Kiber olam ma'lumotlaridan kompyuter va Internet vositasida dunyoning barcha burchaklaridagi kishilar bemalol foydalanishi mumkin. Kompyuter va Internet imkoniyatlaridan foydalana bilish axborot kiber olami bilan kengroq tanishish,

bahramand bo‘lishga muassar etadi. Dunyoning istalgan nuqtasi bilan bir zunda bog‘lanish, muloqot qilish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini oshirishda kitob eng katta vosita hisoblanadi. Ammo bugungi kun yoshlari kitob o‘qishyaptimi? degan savol ham tug‘iladi Ular o‘zlariga qulay bo‘lgan usuldan ya’ni elektron manbalardan ko‘proq foydalanishadi. Masalan, biror bir so‘zning ma’nosini qidirayotgan bo‘lishsa, albatta uni lug‘at kitobdan qarashmaydi, aksincha telefon orqali elektron lug‘atdan tez va oson ko‘rib olishadi. Bu qulay va tezkor bo‘lganligi uchundir. Shunday ekan axborot-kutubxona markazlarida elektron bazani shakllantirish va ko‘paytirish muhim ahamiyatga egadir. Kutubxonaga borgan kitobxonning o‘zi qidirayotgan kitobini tez va oson topishi uchun elektron katalog tizimini ham rivojlantirishimiz lozim. Fondagi barcha kitoblarni elektron katalogga kiritish hamda ularning to‘liq elektron variantini yaratish, bibliografik faoliyatni takomillashtirib borish kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlagani kabi, “Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg‘onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi”. Kutubxonashunoslik sohasini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayni vaqtda respublikamiz bo‘yicha ko‘plab yirik kutubxonalar zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanib bormoqda. Kompyuter, internet, modem tarmoqlari bilan ta’minlangan bo‘lib, kutubxonalararo ma’lumot almashishlar ham yo‘lga qo‘yilgan. Bir kutubxonada yo‘q bo‘lgan kitobning elektron shakli, boshqa bir kutubxonaning elektron fondida mavjud bo‘lishi ham mumkin. O‘zaro ichki elektron almashishning yo‘lga qo‘yilganligi bu kitobxonning tez va oson eng muhimi qidirgan ma’lumot, adabiyotini topishiga albatta yordam beradi.

Axborot-kutubxona xizmatlarini asosan ikki turga bo‘lishimiz mumkin: an’anaviy va noan’anaviy xizmatlar. An’anaviy xizmatlar bu kitob berish, kataloglashtirish, bibliografiya, fondni saqlash kabi xizmatlar sanalsa, noan’anaviy xizmatlar safiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatishlar kiradi.

Bugungi kunda noan'anaviy axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xorijiy davlatlarning yirik kutubxonalarida barcha xizmatlar avtomatlashtirilgan bo'lib, ularda zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi. Kitoblarni elektron bazaga kiritish uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturlarni bizning kutubxonalar ham o'zlashtirishmoqda va eng qulayi tanlab olinib kutubxonalarimizda tadbqiq qilinib kelinmoqda.

Dunyodagi eng nufuzli bo'lgan universitetlarning kutubxonalarini tahlil qilish va ularni O'zbekistondagi oliy yurtlari kutubxonalarida joriy qilishimiz darkor. Masalan:

1. "Harvard Library" Garvard universiteti kutubxonasi. Kutubxona 1638 yilda tashkil etilgan, AQSh dagi eng qadimgi hamda dunyodagi eng kata akademik kutubxona tizimi hisoblanadi. Garvard universitetiga tegishli kutubxonalar 25 dan ortiq bo'lib, u yerda 800 dan ortiq xodimlar ishlashadi. Kutubxona fondi 60 millionda ortiq moddiy hamda elektron resurslar bo'lib, ular 460 dan ortiq dunyo tillarida yozilgan manbalardir.

2. "Bodleian Libraries" Oksford universiteti kutubxonalari. Bodleian kutubxonalari Oksford universitetini qo'llab-quvvatlaydigan kutubxonalar tizimidir. Kutubxona 4 asr muqaddam tashkil etilgan bo'lib, hozirda Buyuk britaniyadagi eng yirik kutubxona hisoblanadi. Kutubxonada 13 milliondan ortiq bosma nashrlar, 80 000 dan ortiq elektron jurnallar va noyob kitoblar va qo'lyozmalar, klassik papiruslar, xaritalar, musiqa, san'at va bosma efemera kabi ajoyib maxsus to'plamlar mavjud.

Ba'zi kutubxonalarda kitobxonlar kutubxonaga borishlaridan avval kutubxonachiga qo'ng'iroq qilib o'z o'rnini band qilib qo'yadi. Bu esa kutubxonada tartibni saqlash, kitobxonning kutib qolishini oldini olish va bir qancha qulaylik paydo qiladi. Yilda yilga har bir sohada yengillik yaratish maqsadida yangiliklar yartilayotganligini hisobga olgan holda bu sohani yanada takomillashtirishimiz uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz zarur. Zero,

barcha ilm-u bilimlarning boshi albatta kitobdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kutubxona eng qadim zamonlardan beri insonlarning ma’naviyatini oshiruvchi bir ziyo maskani bo‘lib kelmoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda kutubxonachilik ishini ham yangi bosqichga olib chiqish har bir soha fidoiysining burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik.- Toshkent: Toshkent nashriyot uyi, 2021.- 42 b.
2. Davlatov S.X, Nosirov O‘, Berdiyeva Z, O‘rozov A, Kutubxonashunoslik. Toshkent - 2020. 432 b.
3. Karimova X.K. Yoshlarning siyosiy madaniyatini tuzatish jarayonida axborot-kutubxona vaziyat holati: muammo va yechimlar. // “Axborot-kutubxona resurslaridan fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalida foydalanish” mavzusida o‘rnatilgan anjuman materiallari. – Toshkent, 2010. - 22-b.
4. Pirmedova , X. M., Xalikova M. A. qizi, & Sharipova , G. A. qizi. (2023).
5. Axborot kutubxona muassasalarida zamonaviy axborot kutubxona xizmatlari. SCHOLAR, 1(31), 104-109.
6. Irgashova Dildora Ma’murjon qizi. Axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. 6-JILD 9-SON 13.09.2023